



PEDAGOGIKANING OILADA SHAKLLANISHI

Xudoyorova Mahliyo
Mirzabekova Xurshida

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 534-21-guruh talabalar Pedagogika fanidan tayyorlagan maqolasi

Annotatsiya: Maqolada oila tarbiyasining asoslari , mohiyati shuningdek oila tarbiyasida boshqaruv tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish yo'llari metodlari va vositalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Oila , farzand , muhit , kommunikativ , reprodaktiv , tarbiya, nikoh, oila tarbiyasi , qadriyat , jamiyat , oila a'zolari ota -ona , o'rnak.

OILA jamiyat hayotining birlamchi bo'g'inidir, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi . Oila o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari , qiziqishlari , mayllari, tarbiyasi, va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi .Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida oila tarbiyasi muhim ahamiyatga ega .Farzand dunyoga kelib birinchi bo'lib ko'rgan kishilar ota-ona , bobo- buvisi,bo'ladi. O'zbek xonadonlarida oila ustini ota hisoblanadi.Oilaning boshqaruv tizimini ota yo'lga qo'yadi, ona esa o'z navbatida bu tizimni farzandlar o'rtasida yo'lga qo'yadi. Oilada qanchalik tartibli boshqaruv tizimi shakllansa oilada komil farzandlar yetishib chiqadi.

Oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tamonidan bolalarni tarbiyalashda, doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch, ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab quvvatlash kerak bo'ladi.

Ota- ona farzandning birinchi tarbiyalovchisi hisoblanadi. Shuning uchun yosh avlodni barkamol, sog'lom, Vatan tuyg'usini xis qila oladigan shaxs qilib voyaga etkazish, birinchi navbatda, ota-onaga bog'liqdir.Bunda o'z navbatida oilada yo'lga qo'yilgan tarbiya boshqaruv tizimi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida qonunlarida oila , onalik , otalik va bolalik huquqlari davlat himoyasidadir. Oila manfaatlarini himoya qilish , ayollarning mehnati va sog'lig'ini saqlash ,shuningdek onalik va bolalik huquqiy himoyasi ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 4- modda. Oila to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir. Oila kodeksi 6-modda



Oila - jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasini tashkil etadi. Jamiyat katta-kichik oilalardan iboratdir. Bu oilalar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustaham bo'ladi. Biz qurayotgan adolatli fuqarolik jamiyatida oila o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligida hamda ijtimoiy vazifalarda ifodalangan. Mamlakatda har bir oila va har insonning turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident I. Karimov bu boradagi vazifalar haqida gapirib: «Eng muhim vazifa - xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog'lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi» '-degandi. Biz adolati fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, notijorat va nodavlat tashkilotlari, jumladan, fondlarning ahamiyati, oilani muhofazasi oshib boraveradi. Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'mi va ahamiyatini kuchaytirish, ya'ni «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» tamoyilini hayotga joriy etish demakdir.

Abdurauf Fitrat aytishicha avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachon biz yaxshi axloq egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalasak, shundagina bo'ynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki badaxloq bola tarbiyalasa bolalarni tarbiyalasa insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onalardan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi" , - deya bola tarbiyasida ota-onalarning namuna bo'lishi haqida qimmatli fikrni ilgari surgan.

Davoniyning fikricha "Ota-ona bolaga jamiyatda mavjud bo'lgan xulq- odob qoidalarini singdirishga, yurish - turishga, yeyish- ichishga, o'z qilmishini uchin mas'uliyatini sezish, shirinsuhan bo'lish, yaxshilik, ezgulik kabi axloq qoidalarini egallashiga yordam berishi lozim". Oilaning asosiy tayanchi bo'lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko'radi, o'zining bukilmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat ma'nfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. SHunga ko'ra bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oya ilgari surilgan. Ammo, sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar. O'z farzandlariga oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog'atda o'tkazadilar, bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko'radilar, dillari aslo jaroxat azobini sezmaydi;

Ota-ona farzandi dunyoga kelishi bilan uni parvarish qilib, katta qiladi, kasal bo'lsa, davolaydi, yediradi, kiydiradi, uni oq yuvib, oq taraydi. Umuman, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta'minlashga harakat qiladi. Hatto buning uchun o'zlari yeyish-ichish, kiyinish va shu kabi narsalardan mahrum bo'lsalar yoki kechalari uyqudan



qolsalar ham. Oilaning asosiy tayanchi ota hisoblanadi. Ota — oilaning boshlig'i, posbonidir. Zero, oilaning har bir ko'z ilg'amas nuqtalarini ilg'ay olish, oila a'zolariga faqat to'g'ri, haq yo'lni ko'rsatib turishdek insoniy mas'uliyat ota zimmasida turadi. Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, o'zaro muomala madaniyatida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylik va xolislik yuzasidan namuna ko'rsatadi. Hayotning barcha mashaqatlarini boshidan o'tkazgan holda farzandi kelajagi uchun qayg'uradi.

Oilada kattalarning obro'si qo'rqitish asosida emas, balki samimiylik, o'zaro hurmat-ehtirom zamiriga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Oila a'zolarining inoqligi, o'zaro hamjihatligi, kiyinish madaniyati, mehnat faoliyati, o'zga kishilar to'g'risidagi suhbatlari va ularning boshqa sifat hamda fazilatlarini bolaning murg'ak tasavvuriga yangi timsollarni olib kiradi.

Oilada tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishida mu-him o'rin tutadi, bola dastlab oilada jamiyatning qiyofasini quradi, bo'lajak fuqaroning huquq va burchlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari oilada shakllanadi, shu asosda jisman va ruhan kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog'lom ijtimoiy-ruxiy muhit, madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, an'analar, ijtimoiy-hayotiy tajribalar, ko'nikma va malakalar manbaidir.

Tan olish kerakki, ba'zi oilalarda ota-ona ertalabdan kechgacha ishlab, ko'cha-ko'yda yuradi, uyda bo'lgan vaqtlarida ham o'z ishlari bilan ovora bo'lib farzandlariga vaqt ajrata olmaydi. Natijada farzand tarbiyani telefon, internet, televizor hamda ko'cha-ko'ydan olmoqda. Shunday tarzda ulg'aygan bola yaxshi xulqli, odobli, ilm-ma'rifatli va kelajakda el-yurtiga xizmat qilib, ota-onasiga rahmat olib keladigan bo'lib ulg'ayishiga kim kafolot beradi

Farzandlarimiz, bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanmoqda, kuni bilan vaqtini nimalarga sarflayapti, uydagi televizor yoki kompyuterda nimalarni tomosha qilayapti, siz olib bergan telefondan yana qanday ishlarda foydalanmoqda, internetda qanday ma'lumotlarni o'qib, qanday lavhalarini ko'rmoqda, ko'chada kimlar bilan do'st bo'lib, ular bilan vaqtini qanday o'tkazmoqda yoki siz berayotgan pullarni qaerlarga sarflayapti?! Bunday ishlarda farzandni nazoratsiz qoldirish mumkin emas.

Oilada-dagi ma'naviy-ruxiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, oila a'zolarining turmush tarzi ko'p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va xissiyotlarini belgilab beradi. Demak oila sog'lom, barka-mol insonni tarbiyalab voyaga etkazishda jamiyat oldida mas'uldir.

Oilada tarbiya topgan xar bir inson xar jixatdan umuminsoniy ahloqiy, ilmiy, e'tiqod va boshqa sohalarida kamolatga yetgan hislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim, kamolot sari intilgan kishi asta-sekin olamni, o'zligini tanib boshlaydi.

Komillik insonning adolatli bo'lishi, xaqiqat va yaxshilikka intilishi, vijdonan pok, o'z hatolarini anglab, ulardan xalos bo'lishga xarakat qilishi demakdir, ma'naviyatni boyitish, iymon-e'tiqodli, aql-zakovatli bo'lish kishilarni g'aflatdan uyg'otadi, barcha ezgu tilklarini ro'yobga chiqaradi.

Masalan, oilalarda moddiy boylikning ko'payishi, undan ota-onalar va bolalarning noto'g'ri foydalanishi, o'smirlarning bir qismida hayotga iste'molchilik, boqimandalik



nuqtai-nazardan qarashni, tubanlikni, xudbinlikni keltirib chiqaradi, mehnatsiz boyluk orttirish kayfiyati kuchayadi. Oilada bola tarbiyasining milliy o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma'naviy-ruhiy hotirjamlik, o'zaro totuvlik xukmron bo'lsa, oila a'zolari bir-birlariga g'amxo'r bo'lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg'a siljish bo'ladi.

«Oilaviy tarbiya doimo o'zining murakkab va ko'p qirraliligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi». Har bir oila o'ziga xos bir olam, olam ichidagi va shu bilan birga olamga sig'magan olam, u tarbiya ishida o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning hammaga ma'qul tushadigan yo'l-yo'riqlari mavjud emas.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz mumkinki OILA har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi maskandir. Biz bilamizki oilada biz va avlodlarimiz tarbiya topib, ulg'ayamiz, dunyoni anglaymiz. Bizning kelajagimiz biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Shu o'rinda quyidagilarni inibatga olish muhim hisoblanadi.

Tavsiyalar

1. Yosh avlodni barkamol, sog'lom, Vatan tuyg'usini xis qila oladigan shaxs qilib voyaga etkazish, birinchi navbatda, oilaga va ota-onaga bog'liqdir. Shuning uchun oilada tarbiyaviy tizimni to'g'ri yo'lga qo'yish lozim.

2. Yosh avlodda kelajakka bo'lgan ishonch xissini uyg'otish uchun esa, ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy merosini chuqur o'rgatish, ularning iste'dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo'naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi

3. Oilada har bir farzand ota-onasi yaratgan oila tartibi-intizomlarga hurmat va ma'suliyat bilan yondashishi zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO'YHATI:

1. F. M. Otaxo'jayev, SH. R. Yo'ldosheva "Oila huquqi" darsligi Toshkent – 2005 II-bet

2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent 2015 18-bet

3. Ishanova M "Oila pedagogikasi" o'quv qo'llanmasi Andijon 2019-yil 25-bet

4. "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" .A Fitrat : tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov : H.Boltaboyev .-Toshkent :Cholpon nomidagi NMIU .2013-144 b